

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: alisherjabborov05@gmail.com
ORCID: 0009-0002-1323-3893*

MUMTOZ MUSIQA MEROSINING TARBIYAVIY AHAMIYATI:

FALSAFIY-PSIXOLOGIK TAHLIL

***Annotatsiya.** Maqolada o'zbek mumtoz musiqa merosining tarbiyaviy ahamiyati falsafiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Muallif "tarbiya" tushunchasini tor pedagogik-metodik ma'noda emas, balki inson ruhiyatida kechadigan chuqur o'zgarish jarayoni sifatida talqin etadi. Aflotun, Shopenhauer va Nitsshening musiqa falsafasiga oid qarashlari Forobiy, Ibn Sino va Kaykovusning musiqa tarbiyasi haqidagi ta'limoti bilan qiyosiy tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida mumtoz musiqaning tarbiyaviy ta'siri ratsional-kognitiv sohaga emas, balki hissiy-irodaviy va aksiologik sohaga yo'naltirilganligi, uning shaxs qadriyatlar tizimini shakllantirishdagi o'rni hamda an'anaviy hofizlik san'atidagi axloqiy me'yorlar tizimi asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** mumtoz musiqa, tarbiya, ma'naviy kamolot, musiqa falsafasi, hofizlik san'ati, axloqiy me'yor, estetik did, musiqiy idrok, ustoz-shogird an'anasi.*

ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ КЛАССИЧЕСКОГО МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ: ФИЛОСОФСКО- ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

***Аннотация.** В статье с философско-психологической точки зрения анализируется воспитательное значение узбекского классического музыкального наследия. Автор трактует понятие «воспитание» не в узком педагогико-методическом смысле, а как процесс глубоких изменений в психике человека. Взгляды Платона, Шопенгауэра и Ницше на философию музыки сопоставляются с учением Фараби, Ибн Сины и Кайкавуса о музыкальном воспитании. В результате исследования обосновывается, что воспитательное воздействие классической музыки направлено не на*

рационально-когнитивную, а на эмоционально-волевую и аксиологическую сферу, раскрывается её роль в формировании ценностной системы личности и система нравственных норм традиционного искусства хафизов.

Ключевые слова: классическая музыка, воспитание, духовное совершенствование, философия музыки, искусство хафизов, нравственная норма, эстетический вкус, музыкальное восприятие, традиция «устоз-шогирд».

THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF CLASSICAL MUSICAL HERITAGE: A PHILOSOPHICAL AND PSYCHOLOGICAL ANALYSIS

Abstract. *The article analyses the educational significance of Uzbek classical musical heritage from a philosophical and psychological perspective. The author interprets the concept of upbringing not in a narrow pedagogical and methodological sense, but as a process of profound transformation within the human psyche. The views of Plato, Schopenhauer and Nietzsche on the philosophy of music are compared with the teachings of al-Farabi, Ibn Sina and Kaykavus on musical education. The study substantiates that the educational impact of classical music is directed not at the rational and cognitive sphere but at the emotional, volitional and axiological one, and reveals its role in shaping the value system of the personality as well as the system of ethical norms in the traditional art of hafiz singers.*

Keywords: *classical music, upbringing, spiritual perfection, philosophy of music, art of hafiz, ethical norm, aesthetic taste, musical perception, master-apprentice tradition.*

Mumtoz musiqa merosining tarbiyaviy ahamiyati masalasini ilmiy tadqiq etishda, avvalo, “tarbiya” tushunchasining mazkur kontekstdagi mazmun-mohiyatini aniqlashtirish zarur. Ushbu tadqiqotda tarbiya tor pedagogik-metodik ma’noda emas, balki inson ruhiyatida kechadigan chuqur psixologik-falsafiy o’zgarish jarayoni sifatida talqin etiladi. Bu jarayon natijasida shaxsda milliy g’urur, vatanparvarlik hissi, ma’naviy-axloqiy his-tuyg’ular va o’z xalqiga, madaniyatiga bo’lgan ichki bog’lanish tuyg’usi shakllanadi.

Boshqacha aytganda, mumtoz musiqaning tarbiyaviy ta'siri o'quv jarayonining tashqi tashkiliy shakllari orqali emas, balki musiqiy asarning o'zi bilan tinglovchi yoki ijrochi o'rtasida yuzaga keladigan bevosita, ichki-ruhiy muloqot orqali amalga oshadi. Bunday yondashuv mumtoz musiqani madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan, ya'ni uning jamiyat va shaxs ma'naviy hayotidagi obyektiv o'rnini falsafiy-psixologik tahlil qilish orqali o'rganishni taqozo etadi [1].

Bu o'rinda "tarbiya" va "ta'lim" tushunchalari o'rtasidagi tafovutni alohida ta'kidlash lozim. Ta'lim, odatda, ma'lum bilim va ko'nikmalarning ongli, izchil ravishda o'zlashtirilishi jarayonini anglatadi hamda u ko'proq intellektual-kognitiv sohaga taalluqlidir. Tarbiya esa, xususan, mumtoz san'at ta'sirida kechadigan tarbiya, ko'proq hissiy-irodaviy, ma'naviy-axloqiy sohaga tegishli bo'lib, u shaxsning dunyoqarashini, qadriyatlar tizimini va his-tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan. Mumtoz musiqa aynan shu ikkinchi chuqurroq va barqarorroq ma'noda tarbiyaviy vosita hisoblanadi: u shaxsga faktik bilim bermaydi, balki uning ichki dunyosini, ruhiy tuzilishini va qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantiradi.

Aynan shu sabab mumtoz musiqaning tarbiyaviy ta'siri ko'pincha ongli nazorat va tahlildan tashqarida, subyektning o'zi to'liq anglamagan holda kechadi, biroq uning natijalari shaxs xarakterida, dunyoqarashida va hayotiy tanlovlarida chuqur iz qoldiradi. Bu jihat mumtoz musiqaning tarbiyaviy samaradorligini o'lchashdagi metodologik qiyinchilikni ham izohlaydi: uning ta'siri qisqa muddatli test yoki so'rov orqali emas, balki shaxsning uzoq muddatli qadriyat yo'nalishlari orqali namoyon bo'ladi.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish qudrati qadim zamonlardan buyon faylasuflar va mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Qadimgi yunon falsafasida bu masala alohida chuqurlik bilan o'rganilgan. Aflotun o'zining "Davlat" asarida ideal jamiyat va komil fuqaroni tarbiyalash masalasini yoritarkan, musiqaga alohida o'rin ajratadi: uning fikricha, yosh avlod tarbiyasida musiqa gimnastika bilan bir qatorda eng muhim ikki vositadan biri hisoblanadi, chunki u insonning nafaqat jismini, balki ruhini ham uyg'un shakllantiradi [2].

Aflotun musiqiy ohanglarning har biri muayyan ruhiy holatni jasorat, mo'tadillik yoxud, aksincha, bo'shashish va zaiflikni uyg'otishga qodir ekanligini ta'kidlab, davlat komil fuqarolarni tarbiyalash uchun qaysi musiqiy ohanglar ta'lim tizimida qo'llanilishi lozimligini nazorat qilishi kerakligini asoslaydi. Muhimi shundaki, Aflotun musiqani individual, shaxsiy zavq manbayi sifatidagina emas, balki butun jamiyat, davlat miqyosidagi ijtimoiy-tarbiyaviy vosita sifatida ko'rgan. Bu esa mumtoz musiqaning nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-kollektiv tarbiyaviy funksiyasini asoslashda muhim falsafiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Yevropa falsafiy tafakkurida musiqaning metafizik mohiyatini eng chuqur talqin etgan mutafakkirlardan biri A.Shopengauer hisoblanadi. U o'zining "Dunyo iroda va tasavvur sifatida" asarida barcha san'at turlari orasida musiqa ustuvor o'rin beradi. Shopengauerning falsafiy tizimida dunyoning eng chuqur mohiyatini "iroda" tashkil etadi [3]. Boshqa san'at turlari irodaning turli obyektivlashgan shakllarini aks ettirsa, musiqa, uning fikricha, irodaning o'zini, uning eng bevosita ifodasini tashkil etadi. Aynan shu falsafiy asos musiqaning insonga boshqa hech qanday san'at turi berolmaydigan darajada chuqur ta'sir ko'rsata olish qobiliyatini tushuntiradi: musiqa tinglovchi ongini emas, bevosita uning ichki, irratsional-emotsional mohiyatini qamrab oladi.

F.Nitsshe ham o'zining "Fojianing musiqa ruhidan tug'ilishi" asarida musiqaning inson ruhiyatidagi o'rniga alohida falsafiy ahamiyat beradi. Nitsshe qadimgi yunon madaniyatida "apollonik" (tartib, uyg'unlik, aniq shakl) va "dionisiyona" (ekstaz, cheksizlik, hissiy to'lqinlanish) boshlanishlarni ajratib ko'rsatadi hamda musiqani dionisiyona boshlanishning eng yuksak ifodasi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, musiqa insonni kundalik, individual mavjudlik chegaralaridan chiqarib, uni umumbashariy, kollektiv ruhiy-hissiy tajriba bilan bog'laydi. Ushbu qarash mumtoz milliy musiqa an'alarining shaxsni xalqning umumiy ruhiy-tarixiy tajribasiga qo'shuvchi kuchini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [4]. Sharq mutafakkirlari orasida musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri masalasini eng chuqur yoritgan siymolardan biri Abu Nasr Forobiy

hisoblanadi. U "Musika haqida katta kitob" asarida musiqani nafaqat matematik-akustik hodisa, balki insonning eng nozik ruhiy holatlariga ta'sir ko'rsatuvchi kuchli vosita sifatida talqin qiladi. Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida aholining ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida urg'u berib, musiqani ushbu tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan biri sifatida ko'rsatadi [12]. Diqqatga sazovor jihat shundaki, Forobiy musiqadagi uyg'unlik qonuniyatlarini insoniy jamiyatga ham tatbiq etadi: uning tasavvuridagi "fozil shahar" xuddi mukammal musiqa asari kabi, turli qobiliyatga ega fuqarolarning o'zaro uyg'un birligidan tashkil topgan jamiyat sifatida talqin etiladi.

Ibn Sino musiqaning inson ruhiyati va tanasiga ko'rsatadigan ta'sirini chuqur ilmiy tahlil qilgan mutafakkirlardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. U musiqani ham fiziologik, ham psixologik nuqtayi nazardan o'rganib, uning ruh bilan birgalikda tanaga ham shifobaxsh ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Ibn Sinoning tibbiy-falsafiy qarashlarida inson ruhiy holati bilan jismoniy salomatligi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lib, musiqa aynan shu ikki soha o'rtasidagi bog'lovchi vosita sifatida talqin etiladi.

An'anaviy hofizlik san'atida tarbiyaviy me'yorlar tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Hofiz-xonandalar elning ko'z o'ngida barchaga ibratli kishi sifatida faoliyat olib borganlar; ijro jarayonining o'zi ham ularning yurish-turishi, kiyinishi va tinglovchiga bo'lgan munosabatida odobli, axloqli, nozik didli, nazokatli va samimiy bo'lishini taqozo etgan. Kaykovusning "Qobusnoma" asaridagi hofizga qaratilgan nasihat xushfe'l va quvnoq bo'lish, pok va xushzabon bo'lish, o'z ishiga mashg'ul bo'lish, qo'pol xulqdan saqlanish mumtoz ijrochilikning axloqiy kodeksi sifatida talqin etilishi mumkin [5].

Bu jihat mumtoz musiqaning tarbiyaviy ta'siri faqat asarning ovoz mazmuni bilan cheklanmasligini ko'rsatadi: ijrochi shaxsining o'zi, uning axloqiy qiyofasi, tinglovchi bilan muloqot madaniyati ham tarbiyaviy ta'sirning ajralmas qismini tashkil etadi. Shu ma'noda an'anaviy majlis muhiti yaxlit tarbiyaviy makon sifatida namoyon bo'ladi unda musiqa, she'r, odob va muloqot madaniyati bir vaqtda amal

qiladi. Mavzuning o'rganilganlik darajasini bir necha yo'nalish bo'yicha tahlil qilish mumkin. Musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri masalasi falsafiy adabiyotda Aflotunning "Davlat" asaridan boshlab tizimli tarzda o'rganilgan. Yangi davr Yevropa falsafasida A.Shopengauerning "Dunyo iroda va tasavvur sifatida" va F.Nitsshening "Fojianing musiqa ruhidan tug'ilishi" asarlari musiqaning metafizik mohiyatini asoslashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi [6]. I.Kantning "Hukm qilish qobiliyati tanqidi" asarida esa estetik idrokning manfaatsizligi haqidagi g'oya ilgari surilib, u mumtoz san'atni idrok etish psixologiyasini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sharq falsafiy-ilmiy an'anasida Forobiyning "Musiqa haqida katta kitob" va "Fozil shahar ahli qarashlari", Ibn Sinoning "Kitob ash-shifo" asarlari musiqaning tarbiyaviy va terapevtik vazifalarini nazariy jihatdan asoslab bergan. Kaykovusning "Qobusnoma" asari esa hofizlikning axloqiy me'yorlarini tizimlashtirgan ilk manbalardan biri hisoblanadi. A.Nazarovning tadqiqotida Forobiy va Ibn Sino ritmika ta'limotining zamonaviy ilmiy talqini berilgan.

Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi yo'nalishida B.M.Teplovning fundamental tadqiqoti alohida o'rin tutadi; unda musiqiy idrokning psixologik mexanizmlari va musiqiy qobiliyatlarning tuzilishi tahlil qilingan. O'zbek adabiyotida X.Alimovning tasavvuf va psixologiya munosabatiga oid qo'llanmasi ma'naviy ta'sir mexanizmlarini tushunishga xizmat qiladi [7].

An'anaviy ijrochilikning axloqiy-tarbiyaviy jihatlari S.Begmatovning "Hofizlik san'ati" qo'llanmasida, M.Mirabdullayevning "An'anaviy xonandalik" ishida, N.Xolboyev va B.Do'stmurodovning yakkaxon qo'shiqchilikka bag'ishlangan tadqiqotlarida yoritilgan. A.Erkayevning "Ma'naviyatshunoslik" monografiyalarida esa ma'naviy tarbiyaning umumnazariy masalalari tahlil etilgan. Mavjud tadqiqotlarda musiqaning tarbiyaviy ta'siri ko'proq pedagogik-metodik yoki musiqashunoslik jihatdan o'rganilgan bo'lib, uni falsafiy-psixologik va madaniyatshunoslik metodologiyasi uyg'unligida, Sharq va G'arb nazariy

an'analarini qiyoslagan holda tadqiq etish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur maqola shu yo'nalishdagi ilmiy izlanishning bir qismi hisoblanadi [8].

O'tkazilgan qiyosiy-nazariy tahlil quyidagi natijalarni berdi.

Birinchidan, mumtoz musiqaning tarbiyaviy ta'sir mexanizmini to'rt bosqichli jarayon sifatida tavsiflash mumkin: hissiy jalb etilish (asarning ohangi va ijro sifati orqali tinglovchi diqqatining tortilishi); hissiy hamohanglik (tinglovchining asarda ifodalangan kayfiyatga qo'shilishi); ma'naviy anglash (she'riy matn va musiqiy obraz mazmunining idrok etilishi); qadriyatga aylanish (idrok etilgan mazmunning shaxs qadriyat tizimiga singishi). Tarbiyaviy natija faqat to'rtinchi bosqichda yuzaga keladi, bu esa mumtoz musiqa ta'sirining uzoq muddatli va takroriy muloqotni talab qilishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, Sharq va G'arb falsafiy an'alarining qiyosiy tahlili ular o'rtasida chuqur mazmuniy yaqinlik mavjudligini ko'rsatdi. Aflotunning musiqiy ohanglar orqali fuqarolik fazilatlarini tarbiyalash g'oyasi bilan Forobiyning "fozil shahar" konsepsiyasi bir xil metodologik asosga musiqiy uyg'unlik va ijtimoiy uyg'unlik o'rtasidagi parallelga tayanadi. Bu esa musiqiy tarbiya g'oyasining umuminsoniy xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, tahlil natijasida mumtoz musiqaning tarbiyaviy ta'siri uch darajada namoyon bo'lishi aniqlandi: individual-psixologik daraja (shaxsning hissiy madaniyati, estetik didi va irodaviy sifatlarining shakllanishi); ijtimoiy-axloqiy daraja (jamoaviy qadriyatlar, o'zaro hurmat va o'dob me'yorlarining o'zlashtirilishi); milliy-identifikatsion daraja (o'z xalqining madaniy an'anasiga mansublik hisining mustahkamlanishi). Ushbu uch daraja bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yaxlit jarayon sifatida amal qiladi [9].

To'rtinchidan, an'anaviy hofizlik san'atida ijrochi shaxsiga qo'yilgan axloqiy talablar tizimi mumtoz musiqaning tarbiyaviy salohiyatini ta'minlovchi muhim institutsional omil sifatida baholandi. Ijrochi nafaqat san'atkor, balki ma'naviy namuna sifatida qaralgan; bu esa ijro jarayonini oddiy badiiy aktdan tarbiyaviy hodisaga aylantirgan. Zamonaviy sharoitda ushbu axloqiy me'yorlar tizimining

zaiflashuvi mumtoz ijrochilikning tarbiyaviy samaradorligini pasaytiruvchi jiddiy omil hisoblanadi.

Beshinchidan, tadqiqot mumtoz musiqaning tarbiyaviy ta'siri tinglovchining tayyorgarlik darajasiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Maqom va katta ashula kabi murakkab janrlarni idrok etish she'riy matnni tushunish, ijro an'analari haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lish va uzoq muddatli diqqat-e'tiborni saqlash ko'nikmasini talab qiladi. Mumtoz musiqaning tarbiyaviy salohiyatini ro'yobga chiqarish maxsus tayyorgarlik bosqichini maktabgacha va umumiy ta'lim tizimida bosqichma-bosqich musiqiy idrok madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi.

Oltinchidan, oilaviy muhitning ahamiyati alohida qayd etildi. Shaxsning mumtoz musiqa bilan birinchi tanishuvi ona allasi, oilaviy yig'inlarda eshitilgan mumtoz ashula uning butun keyingi musiqiy didi uchun poydevor vazifasini o'taydi [10]. Zamonaviy sharoitda oilalarda mumtoz musiqa muhitining zaiflashuvi uzoq muddatli istiqbolda tarbiyaviy ta'sir zanjirining uzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xavf omili sifatida baholanishi lozim.

Umuman aytganda, Mumtoz musiqa merosining tarbiyaviy ahamiyati uning ratsional-kognitiv emas, balki hissiy-irodaviy va aksiologik sohaga yo'naltirilgan ta'sirida namoyon bo'ladi; shu bois uni o'lchash va baholashda uzoq muddatli qadriyat yo'nalishlarini hisobga oluvchi metodologiya qo'llanilishi lozim. Sharq va G'arb falsafiy an'alarining qiyosiy tahlili musiqiy tarbiya g'oyasining umuminsoniy asosga ega ekanligini, ayni paytda o'zbek mumtoz musiqasida bu g'oyaning ustoz-shogird tizimi va hofizlik odobi shaklida institutsional ko'rinish olganini ko'rsatadi [11].

Mumtoz musiqaning tarbiyaviy ta'siri to'rt bosqichli jarayon orqali amalga oshadi va uch individual-psixologik, ijtimoiy-axloqiy hamda milliy-identifikatsion darajada namoyon bo'ladi. Mumtoz musiqaning tarbiyaviy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun oila, ta'lim muassasasi va ijodiy muhit o'rtasida uzluksiz aloqa tizimini shakllantirish, shuningdek ijrochilik axloqiy me'yorlarini kasbiy ta'lim mazmuniga izchil singdirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. PQ-4038-son, 2018-yil 28-noyabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – www.lex.uz.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. Platon (Aflotun). Davlat. III kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 464 b.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 224 b.
5. Begmatov S. Hofizlik san'ati: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Musiqa, 2007. – 96 b.
6. Mirabdullaev M. An'anaviy xonandalik: o'quv qo'llanma. – Namangan: Iste'dod ziyo-press, 2022. – 132 b.
7. Xolboyev N. Yakkaxon qo'shiqchilik (An'anaviy xonandalik). – Toshkent, 2018. – 156 b.
8. Do'stmurodov B. Yakkaxon qo'shiqchilik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 148 b.
9. Sher A. Estetika. Nafosat falsafasi: darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 368 b.
10. Alimov X. Tasavvuf va psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019. – 176 b.
11. Теплов Б. Психология музыкальных способностей. – Москва–Ленинград: Изд-во АПН РСФСР, 1947. – 335 с.
12. Назаров А. Форобий ва Ибн Сино. Ритмика хусусида: монография. – Тошкент: Гафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – 123 б.